



### O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA KORXONA AKTIVLARINI BOSHQARISH, GLOBALLASHTIRISH VA INTEGRATSIYA JARAYONLARINING TA'SIRI

*Musayeva J.K.*

*Buxoro muhandislik-tehnologiya instituti*

**Annotatsiya:** Maqolada globallashuv sharoitida davlatni rivojlantirishining yo'nalishlari va xususiyatlari ko'rib chiqildi, hozirgi integratsiya sharoitida mintaqani rivojlantirish muammolari aniqlandi, iqtisodiy maqsadlarda korxona aktivlarini boshqarysh, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha takliflar berildi. O'sishni va moliya tizimini barqarorlashtirish, milliy valyuta va bank tizimini mustahkamlash, O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishiga hissa qo'shish, mamlakatni rivojlantirish yo'nalishlari aks ettirilib, ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari belgilanib, takliflar berildi.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiyot, globallashuv, milliylik, global muhit, aktiv, integratsiya, hamkorlik, samaradorlik, mintaqa, omil, kapital, sur'at, ixtisoslashuv, savdo, xavfsizlik

**Аннотация.** В статье были рассмотрены направления и особенности развития государства в условиях глобализации, выявлены проблемы развития региона в условиях современной интеграции, внесены предложения по управлению активами предприятия для достижения экономических целей, а также развитие информационных и коммуникационных технологий, способствуя развитию экономики Узбекистана, были отражены направления развития страны по стабилизации роста и укрепления финансовой системы, национальной валюты и банковской системы, управлению активами, определены темпы роста производства и внесены предложения.

**Ключевые слова:** экономика, глобализация, национальность, глобальная среда, интеграция, актив, сотрудничество, интеллект, эффективность, регион, фактор, капитал, темп, специализация, торговля, безопасность

**Annotation.** The article considered the directions and features of the development of the state in the context of globalization, identified the problems of the development of the region in the context of modern integration, made proposals for managing enterprise assets to achieve economic goals, as well as the development of information and communication technologies. contributing to the development of the economy of Uzbekistan, the directions of the country's development were reflected in stabilizing growth and strengthening the financial system, the national currency and the banking system, asset management, production growth rates were determined and proposals were made.

**Keywords:** economy, globalization, nationality, global environment, integration, cooperation, intelligence, efficiency, region, factor, capital, pace, specialization, trade, security

## 1. Kirish.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida globallashuv va integratsiyalashuv - bu murakkab jarayon bo'lib, aksariyat yirik transmilliy korporatsiyalar hozirgi davrda global sharoitda faoliyat yuritmoqdalar. Ular har qanday chegara va milliylikdan qat'iy nazar, doim iste'molchilaming talabini qondirishga intiladilar. Shu tufayli ular iste'molchilar talabi yuqori bo'lgan barcha bozorlarni egallab olmoqdalar. Globallashuv sharoitida kompaniyalar xalqaro darajadagi aktivlarini boshqarish, iste'molchilar, texnologiyalar, xarajatlar, strategik raqobatlarni o'rganadilar. Ular o'zlarining maqsad va rejalarini doirasida ishlab chiqarish va sotuv bo'linmalarini turli mamlakatlarga joylashtirib, global sharoitda vaziyatni o'zlar uchun qulaylashtirishga intiladilar. Transmilliy kompaniyalar va firmalarni tashkil etish, rivojlantirish turli xildagi to'siqlarni yengib o'tishga imkoniyat yaratadi ya'ni, transfer narxlar, qayta ishlab chiqarishga qulay sharoit, milliy bozor muhitini yaxshi o'rganish, qo'shimcha daromad va boshqalar hisobiga rivojlanadilar. Bugunda globallashuv va integratsiyalashuvning quyidagi darajalarda kuzatilmoqda:

- mintaqalar, mamlakatlar (makrodarajada);
- tovar, kapital, mehnat va valyuta bozorlari (mezodarajada);
- ma'ium kompaniya va korporatsiyalar (mikrodarajada).

Mamlakatlar va mintaqaviy integratsion birlashmalar savdoni erkinlashtirish, investitsion va migratsion cheklovlarni olib tashlash hamda erkin savdo yoki umumiy bozor hududini barpo etish hisobiga o'z chegaralaridan tashqarida iqtisodiy faollikkaga intilishlari globalashuvning makroiqtisodiy darajasidir. Kompaniyalar o'z faoliyatini kengaytirishida, ichki bozordan tashqariga yo'nalganligi orqali globalashuv mikroiqtisodiy darajada namoyon bo'ladi (H.Ivanov, 2000).

Jahon xo'jaligi zamonaviy globalashuvining asosiy xususiyatlaridan biri korxona aktivlarini boshqarish, kapital, tovar va xizmatlar, ishchi kuchining erkin harakatida inson intellektual qobiliyatidan unumli foydalanish imkoniyatlarining ortishida namoyon boladi. Ushbu omil ta'sirida rivojlanayotgan mamlakatlarning globalashuv afzalliklaridan foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarini oshirish imkoniyatlari paydo bolib, iqtisodiy siyosat yuritganda, uning e'tiborga olinmasligi salbiy oqibatlarga olib keiuvchi natijalarini keltirib chiqarishi mumkin.

## 2. Adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalar taraqqiyoti natijasida bevosita investitsiya, portfel investitsiya va bank ssudalaridan iborat kapitallar xalqaro harakatining kuchayishi globalashuvning diqqatga sazovor xususiyatlaridan biri boiib hisoblanadi. Moliyaviy resurslar xalqaro oqimining o'sish sur'atlari xalqaro savdo hajmining o'sish sur'atlarini sezilarli darajada ortda qoldirmoqda. Ayniqsa, bevosita xorijiy investitsiya oqimining jadallahib borayotgani diqqatga sazovordir. Xalqaro kapital harakati uning barcha ishtirokchilariga daromad keltiradi. Xorijiy investorlar xalqaro miqyosdagi bozorlarga kirish orqali tavakkalchilikning diversifikatsiyasiga erishib, jahon miqyosida daromad olish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. Odatda investitsiya qabul qiluvchi davlatlarda foiz stavkalari darajalari yuqori bo'lib, bu investorlarning o'z kapitallarini yuqoriroq foyda miqdorini ta'minlovchi hududlarga yo'naltirishiga turtki bo'ladi (J.K.Musayeva, 2021).

"Investitsiya" atamasining bir nechta ta'riflari mavjud. Iqtisodchi T.K.Rutkauskas (2019) investitsiyalarni "iqtisodiyotning turli tarmoqlariga, infratuzilmaga, ijtimoiy dasturlarga, atrof-muhitni muhofaza qilishga ham mamlakat ichida, ham xorijda uzoq muddatli kapital qo'yish" yoki "har qanday mablag'larni moddiy, nomoddiy va moliyaviy aktivlarga investitsiya qilish" nuqtai nazaridan qaraydi. J.M.Keyns (2000) investitsiyani "asosiy, aylanma yoki likvid kapitaldan iborat bo'lishidan qat'i nazar, kapital mulk

qiymatining oshishi" deb ta'riflagan. Sarmoya kiritish orqali ishlab chiqarish quvvati o'sishi mumkin.

V.P.Vasilyev, Yu.A.Xolodenko (2012)kabi olimlar investitsiya faoliyati va investitsiya tushunchalarini zamonaviy iqtisodiy fanning muhim bo'limi deb hisoblaydi. Bu olimlar o'z ishlarini investitsiyalarni rivojlantirish, moliyalashtirish va investitsiya samaradorligini baholash muammolariga, investitsiyalarni hisoblash qonuniyatlari va investitsiyalarni moliyalashtirish xususiyatlari bag'ishlaydilar.

A.M.Lapteva (2015) o'z maqolasida investitsiya tushunchasi va mohiyatini iqtisodiy nuqtai nazardan ko'rib chiqishga harakat qiladi.

U.F.Sharp (2001) kabi bir qancha xorijiy olimlarning asarlarida rivojlangan mamlakatlarda investitsiya fondlarining barqaror rivojlanishi sharoitida ularning nazariyasi va amaliyoti keltirilgan.

Jahon xo'jaligida global o'zgarishlar tarqalishining o'ziga xos mexanizmi mavjud. Bunga «Buyuk turg'unlik davri» misol bo'lib, inqiroz bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'pincha zanjirsimon shaklda tarqagan: bozorning torayishi, kapitalning boy berilishi, talabning qisqarishi, ishlab chiqarishni qisqartirish, davlat tomonidan import qiluvehilarga nisbatan bojhona to'siqlarining o'rnatilishi-xalqaro savdo haj mining kamayishi savdo-sotiq bo'yicha hamkor mamlakatlarda ishlab chiqarishning pasayishi va hokazo. Bundan tashqari, bozor ishtirokchilari ko'pchilik mamlakatlarda tarqagan biznes yuritish tamoyillarini qayta shakllantirmoqdalar. Ular faoliyat maydonida go'yoki o'zlarining tashkiliy va texnik to'rlarini yoyib tashlamoqdalar. Bu kabi korporativ to'rlar bilan birlgilikda diasporaviy, diniy, mafiozili( mafiya) va megapolislari to'rlar ham shakllangan bolib, ular tovar va pul oqimi bilan hamohang ravisbda transmilliyashuv va bogliqlik darajasining yanada kuchayishiga olib kelmoqda (J.K.Musayeva, D.X.Jumayeva, 2019).

### **3. Tahlil va natijalar.**

Ma'lumki, o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatiarida milliy xo'jalik tizimini takomillashtirish, shuningdek ishlab chiqarish va eksportning diversifikatsiyalashuviga erishish, korxona aktivlarini boshqarish maqsadida mavjud tarmoqlami rivojlantirish va yangilarini yaratishga ehtiyoj yuqori. Bir vaqtning o'zida, mazkur guruhga kiruvchi aksariyat mamlakatlar ushbu maqsadlarga erishishda ichki moliyaviy resurslarning cheklanganligi bilan bog'liq o'xshash muammolarga duch kelmoqdalar. Bunday sharoitda jahon kapital bozoriga chuqur integratsiyalashuv ushbu mamlakatlar uchun iqtisodiyotni isloq qilish va o'sish sur'atlarini jadallashtirish, moliyaviy tizimni barqarorlashtirish hamda milliy valyuta va bank tizimini mustahkamlash kabi masalalarni hal qilishda investitsiyalami keng jalb qilish orqali jahon moliya bozorlari afzalliklaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradi (J. K.Musayeva, M.M.Sharipova, 2021).

Investitsiya jalb qilish natijasida iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish kapitalning qaysi shaklda kirib kelishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Masalaga shu nuqtayi nazardan yondoshilganda, odatda bevosita xorijiy investitsiyalaming yuqori darajadagi afzalliklarga ega ekanligi e'tirof etiladi. Bevosita xorijiy investitsiya ar ko'rinishidagi xalqaro kapital harakatida ishtirok etish ustuvorligini belgilovchi omillardan biri - bu transmilliy kompaniyalarning intellektual mulki bo'lmish ilg'or texnologiyalarning jahon bozorida to'g'ridan-to'g'ri o'tkazilmasligi bo'lib, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari bunday imkoniyatga faqatgina bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb etish va korxona aktivlarini boshqarish orqaligina ega bo'lishlari mumkin. Bu jihatdan bevosita xorijiy investitsiyalarning o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari uchun afzal xususiyatlari: hamkor transmilliy kompaniyalaming mavqeい, ularning xomashyo yetkazib beruvchilar bilan aloqasi, tayyor mahsulotni sotish kanallari, jahon bozori doirasida marketning tadqiqotlari, boshqaruv malakasi va ishlab chiqarish sirlari, shuningdek, kadrlar tayyorlash dasturlaridan iborat bo'lib, bu va shu kabi

boshqa omillardan oqilona foydalanish milliy iqtisodiyot samaradorligi va raqobatbardoshligi darajasining oshishiga olib kelmoqda (B.Mukhsinov, 2005).

Mamlakatda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalaming tashkil etilishi erkin raqobat muhitini yaratilishi orqali korxona aktivlarini samarali boshqarish, tovar va xizmatlar sifatini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va avvallari bozorning mahalliy ishlab chiqanivchilar tomonidan monopollashtirilgan tarmoqlarida tovar va xizmatlar sifat slandartlarining oshishiga olib kelishi mumkin. Tovar va xizmatlar erkin savdosi globallashuvning muhim jihatidir. Ma'lumki, milliy iqtisodiyotning nisbiy afzalliklarga ega tarmoqlarda ixtisoslaslnivi va xalqaro savdoda ishtirok etishi aholi daromadlari va farovonligini oshishining qo'shimcha manbai bo'lib hisoblanadi.

Fan-tehnika yutuqlaridan foydalanish natijalari xalqaro savdo orqali boshqa mamlakatlarga bilvosita va to'g'ridan-to'g'ri tarqaladi. To'g'ridan-to'g'ri tarqalish fantexnika yutuqlarini o'zida mujassam etgan texnologiyalarning jahon bozorida sotilganida va boshqa mamlakatlar ularni xarid qilganida sodir bo'ladi. Bilvosita tarqalish yangi texnika va texnologiya ishlab chiqilgan mamlakat eksport tarmoqlari samaradorligi oshganida va tovarlar sifatining yaxshilanganida ro'y beradi. Erkin savdo milliy ishlab chiqaruvchilar tovar va xizmatlari sifatining yaxshilanishi orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshishi, import orqali ishlab chiqaruvchilar soni kam bo'lgan yoki xorijiy tovar sifati darajasiga yetmagan iqtisodiyot tarmoqlarida raqobat muhitini vujudga keltirib, korxona aktivlarini samarali boshqarish va tovar tannarxining pasayishini ta'minlaydi (J.K.Musayeva, 2021).

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning kuchli raqobat mavjud jahon bozoriariga chiqishi ham korxona aktivlarini samarali boshqarish tovar va xizmatlar sifatining oshishi va tannarx pasayishining muhim omili bo'lib hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari ta'sirida raqobat kuchayib, mehnat resurslarining ma'lumoti va malakasi, ishlab chiqarishni tashkil etish va uni boshqarish tizimi, ilmiy-texnik yangilik, ustuvorlik hamda sifatlari infratuzilmaga talab oshadi. Faqatgina ishlab chiqarish omiliari sifatini oshirish, ishlab chiqarishni tashkil etish, faol axborot almashinuvini ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish hamda iqtisodiy strategiyalarni o'z vaqtida tuzatib borish orqali mavjud ustuvorliklarni asrab qolish, ularni rivojlantirish va pirovard natijada mamlakatning iqtisodiy o'sishiga erishish mumkin.

Globallashuv korxona aktivlarini boshqarish, narx-navo va iste'mol tovarlari sifati unifikatsiyasini tezlashtiradi, global raqobat esa ularning doimiy takomillashuvini talab qiladi. Iqtisodiy yopiqlik, proteksionizm, qolaversa jahon bozorlari global raqobatining mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir etmasligi resurslarning optimal taqsimlanishi va foydalanishiga to'sqinlik qilib, iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytiradi. Globallashuv jarayonlari inson salohiyatini oshirishda ham qulay sharoitlar yaratib bermoqda. Ilmiy izlanish va tadqiqotlar, ta'lim va tajriba sohasida xalqaro malaka oshirish, qo'shma loyihibar va xorijda tajriba almashinishning jadallahushi natijasida o'zini milliy iqtisodiyotning muhim innovatsion omili sifatida namoyish etmoqda (J.K.Musayeva, M.A.Xalilova, 2022).

Internet va axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi xo'jalik subyektlarining faoliyati va korxona aktivlarini boshqarish doirasini kengaytinoqda. Xo'jalik yurituvchilar uning yordamida nisbatan kam xarajatlar evaziga zarur axborotlarga ega boimoqdalar. Shuningdek, ular boshqaruv jarayonida yangi sifat darajalariga erishish, xo'jalik yuritish salohiyatining oshishi, talab va taklif o'zgarishlariga mos qarorlami o'z vaqtida qabul qilish imkoniyatga ega bo'ladilar. Globallashuv jarayonlari jahon xo'jaligida ishtirok etuvchi har bir mamlakat iqtisodiyotiga ma'lum miqdorda ta'sir etadi va undan qayta ta'sirlanadi. Bozorning turli ishtirokchilari o'z manfaatlari yo'lida harakat qilib, aktivlarini samarali boshqarishda zanjirsimon jarayonni vujudga keltiradilar. Ularning faoliyat yuritish uslubi doimiy tarzda o'zgarib turishi sababli, jahon xo'jaligi subektlarining bir-biriga bog'liqlik darjasini oshib borada.

Oxirgi olti yilda mamlakatimiz aholisi 13 foizga, sanoat korxonalar soni ikki barobarga, 45 mingtadan 100 mingtaga ko'paydi. Viloyatda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati esa o'tgan yilga nisbatan foizlarda quyidagi ko'rsatkichni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mollari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan foizda

### 1-jadval Hududlar kesimida iste'mol mollari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari

| Hududlar                      | 2010  | 2011  | 2012  | 2013  | 2014  | 2015  | 2016  | 2017  | 2018  | 2019  | 2020  | 2021  |
|-------------------------------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| O'zbekiston Respublikasi      | 111,5 | 106,5 | 107,9 | 109,4 | 109,4 | 109,7 | 106,0 | 106,7 | 114,7 | 110,3 | 105,7 | 113,9 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 109,4 | 106,5 | 109,6 | 105,5 | 112,0 | 118,8 | 104,3 | 106,4 | 122,2 | 102,2 | 113,6 | 105,3 |
| Andijon                       | 108,9 | 101,8 | 109,2 | 119,0 | 101,2 | 92,4  | 70,1  | 134,9 | 165,2 | 119,9 | 99,9  | 92,3  |
| Buxoro                        | 109,4 | 103,2 | 104,6 | 100,5 | 110,9 | 113,4 | 105,1 | 104,2 | 102,6 | 105,9 | 108,9 | 114,9 |
| Jizzax                        | 116,2 | 110,8 | 109,6 | 108,3 | 113,3 | 113,9 | 120,5 | 109,5 | 106,7 | 101,3 | 116,7 | 136,6 |
| Qashqadaryo                   | 109,6 | 102,3 | 108,1 | 102,7 | 105,8 | 110,1 | 112,7 | 91,2  | 100,7 | 110,2 | 110,9 | 95,7  |
| Navoiy                        | 112,1 | 104,1 | 107,8 | 103,5 | 105,1 | 113,7 | 111,5 | 92,9  | 100,1 | 101,1 | 102,3 | 107,0 |
| Namangan                      | 113,7 | 114,0 | 111,4 | 106,4 | 113,7 | 119,4 | 122,2 | 113,2 | 111,6 | 111,7 | 96,4  | 120,1 |
| Samarqand                     | 118,5 | 105,2 | 104,4 | 110,7 | 116,0 | 108,2 | 108,9 | 102,1 | 111,6 | 101,6 | 119,9 | 112,9 |
| Surxondaryo                   | 107,9 | 103,1 | 105,8 | 104,1 | 114,0 | 116,0 | 119,4 | 97,0  | 101,5 | 108,9 | 121,2 | 112,5 |
| Sirdaryo                      | 107,7 | 119,3 | 107,1 | 105,1 | 110,8 | 108,7 | 111,8 | 96,6  | 104,4 | 101,8 | 86,3  | 118,3 |
| Toshkent                      | 116,6 | 109,7 | 112,3 | 111,6 | 109,5 | 122,6 | 114,5 | 94,6  | 111,7 | 100,0 | 115,0 | 127,0 |
| Farg'ona                      | 109,7 | 103,3 | 103,2 | 103,0 | 107,0 | 113,1 | 112,5 | 106,5 | 101,3 | 102,4 | 111,4 | 111,2 |
| Xorazm                        | 111,1 | 105,8 | 111,6 | 107,3 | 186,7 | 124,8 | 93,8  | 110,8 | 130,4 | 124,1 | 100,1 | 117,7 |
| Toshkent sh.                  | 110,5 | 111,2 | 107,4 | 107,5 | 114,9 | 114,6 | 119,4 | 107,4 | 101,7 | 106,2 | 107,0 | 129,2 |

Hududlar kesimida iste'mol mollari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari o'tgan yilga nisbatan foizda turlicha o'zgarishi kuzatildi, aksariyat hollarda o'tgan davrlarga nisbatan o'sish sur'atlari kuzatildi, bu albatta ijobiy hol, chunki O'zbekiston aholisi soni ham yildan-yilga oshib bormoqda

### 2-jadval Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

| Ko'rsatkichlar mlrd. so'm                                | 2021.01  | 2021.02  | 2021.03  | 2021.04  | 2021.05  | 2021.06  | 2021.07  | 2021.08  | 2021.09  | 2021.10  | 2021.11  | 2021.12  |
|--|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|
| Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sanoat mahsuloti hajmi, | 26766,6  | 55281,3  | 91530,5  | 124281,2 | 160035,3 | 200060,6 | 233758,0 | 269779,9 | 314843,5 | 356097,4 | 397341,7 | 456056,1 |
| Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sanoat mahsuloti hajmi, | 456056,1 | 32 918,1 | 66 734,7 | 113990,2 | 154321,4 | 196894,7 | 251372,8 | 293026,1 | 337993,6 | 391948,4 | 439920,9 | 486999,2 |
| Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni izlash                | 3221,22  | 6026,5   | 9476,0   | 412707,6 | 16008,6  | 18990,3  | 24 64,5  | 26064,2  | 29836,3  | 34268,5  | 38 506,  | 43872,2  |
| Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni izlash                | 43872,2  | 53835,2  | 7528,1   | 12284,6  | 16050,8  | 19940,0  | 24481,2  | 28178,9  | 33056,1  | 38211,5  | 42738,3  | 47336,9  |
| Ishlab chiqaradigan sanoat                               | 20487,8  | 43590,0  | 73359,9  | 100427,1 | 130525,6 | 165102,5 | 192781,7 | 222610,9 | 261335,0 | 295165,2 | 328780,0 | 378186,4 |
| Ishlab chiqaradigan sanoat                               | 378186,4 | 25660,6  | 52702,1  | 91730,6  | 125788,7 | 161754,4 | 208665,4 | 242779,6 | 279473,3 | 324868,7 | 364999,9 | 403779,5 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish                 | 2995,9   | 5909,6   | 9880,0   | 13355,7  | 16850,7  | 21885,8  | 25221,2  | 29560,4  | 35118,9  | 39880,4  | 44804,3  | 48643,3  |
| Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish                 | 4643,3   | 3338,7   | 6736,7   | 10808,7  | 15376,7  | 19766,7  | 26101,6  | 30407,5  | 35412,5  | 41863,0  | 47283,4  | 52282,2  |
| Ichimliklar ishlab chiqarish                             | 409,5    | 954,6    | 1654,8   | 2 378,7  | 3 118,9  | 4 199,8  | 5 117,3  | 6 332,4  | 7 560,3  | 8 311,6  | 9 062,7  | 10135,4  |

Ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sanoat mahsuloti hajmida 2021 yil davomida o'sish kuzatilgan, 2022 yil boshida esa ushbu ko'rsatkichning keskin pasayib, II chorakda qaytib o'sishi kuzatildi. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni izlash ishlari ham 2 yil davomida o'sish tendensiyalari kuzatildi. Ishlab chiqaradigan sanoatda 2021 yilda dinamikada o'sish kuzatilgan bo'lsa, 2022 yilga kelib ushbu ko'rsatkich o'tgan yil I kvartalga nisbatan pasayish II chorakdan boshlab o'sish kuzatildi. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatini hajmi esa yildan yilga oshib bordi. Jumladan

Ichimliklar ishlab chiqarish sohasida ham o'sish dinamikasiga erishildi. Ushbu jarayonlar davlatimizda oziq -ovqat bilan ta'minlash va sanoatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

Mahalliy hukumatlarning xalqaro miyosida amalga oshiriladigan vazilalari o'zgarmoqda. Nodavlat birlashmalarining xalqaro munosabatlariga shiddat bilan kirib kelishi davlatlar hukumatning xalqaro miyosligi yakka hokimligiga to'sqinlik qilib, asosiy hokimiyatni iqtisodiyotdan tortib to diniy va madaniy masalalariacha jamiyat fikri bilan murosa qilishga majbur qilmoqda. Globallashuv sharoitida o'tish iqtisodiyoti mamlakatlariga tegishli iqtisodiy siyosat olib borishni taqozo etmoqda. Bu vaziyatda milliy iqtisodiy siyosatning vazilasi jahon xo'jaligi jarayonlarida ishtirok etishdan olinadigan nafni maksimallashtirish, kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavfni ham minimallashtirishdiradi.

Mahalliy boshqaruv organlarining xalqaro roli o'zgarmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlarining davlatlarning xalqaro munosabatlariga jadal kirib borishi hokimiyatning baynalmilallahuviga to'sqinlik qiladi va asosiy kuchni iqtisodiyidan tortib diniy-madaniy masalalargacha jamiyat fikri bilan murosa qilishga majbur qiladi. (Ж.К. Мусаева 2021).

Globallashuv sharoitida iqtisodiyoti o'tish davridagi mamlakatlar uchun tegishli iqtisodiy siyosat yuritish zarur. Bunday vaziyatda milliy iqtisodiy siyosatning maqsadi jahon iqtisodiy jarayonlarida ishtirok etishdan maksimal foyda olish, korxona aktivlarini samarali boshqarishni tashkil etish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfni minimallashtirishdir. Murakkab geosiyosiy vaziyat yuzaga keldi, energiya resurslari taqchilligi kuchaymoqda, oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda, moliyaviy resurslar qimmatlashmoqda (Murojaatnama, 2022).

#### **4. Xulosa va takliflar.**

Olib borilgan tadqiqot natijalariga muvofiq, xulosalar shakllantirildi, so'nggi yillarda mamlakatimizda sanoat rivojlanib, yangi tarmoqlar shakllanishi bilan birga, tog'-kon va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ham rivojlanib bormoqda. Hududlar kesimida iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning yuqori ko'rsatkichlari Jizzax viloyati va Toshkent shahrida kuzatilgan. Ammo sanoat ishlab chiqarishda yuqori texnologiyali tovarlarning ulushi past.

Xulosalar asosida quyidagi takliflar shakllantirildi:

globallashuv sharoitida mamlakat raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida innovatsion tarmoqlar salmog'ini oshirish zarur. jumladan, farmatevtika, biokimyo, mashinasozlik va boshqalar;

mamlakatda iqtisodiyot tarmoqlarining diversifikatsiya qilinganligi xalqaro mehnat taqsimotida samarali ishtirok etish imkonini oshiradi. Shuningdek, ushbu tarmoqlarni jahon standartlari darajasida diversifikatsiya qilish ham ahamiyatli bo'lishi kerak.

#### **Adabiyotlar**

Murojaatnama (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi

Mukhsinov B., Yuldasheva S. Musaeva J. (2005) International journal of advanced science and technology vol. 29, no. 5, (2020) //ISSN. – Т. 4238. – С. 1922-1926.

Васильев В.П., Холденко Ю.А. (2012) Макроэкономика: учебное пособие / - М.: ДиС, - 208с.

Иванов Н. (2000) Глобализация и проблемы оптимальной стратегии развития (Мировая экономика и международные отношения) М.

Кейнс Дж. (2000) Общая теория занятости, процент и денег. / Пер. с англ. Н. Н. Любимова; Под ред. Л. П. Куракова. М., - С30.

Лаптева А.М. (2015) Содержание и сущность понятия «Инвестиции» // «Экономика и бизнес», № 3, стр 45-53

Мусаева Ж.К. (2021) Роль цифровой трансформации в развитии экономики Узбекистана.

Мусаева Ж. К., Шарипова М. М. (2021) Информационная безопасность – важное условие цифровой экономики.

Мусаева Ж. К. (2021) Тенденции развития цифровой экономики и образования в Узбекистане //Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации. – С. 246-250.

Мусаева Ж. К. (2021) Саноат корхоналарида асосий капиталдан самарали фойдаланиш йўллари //Журнал Инновации в Экономике – Т. 4. – №. 6.

Мусаева Ж. К., Халилова М.А. (2022) Корхоналарнинг асосий капиталини баҳолаш ва улардан самарали фойдаланиш йўналишлари //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Т. 2. – №. 4. – С. 200-217.

Мусаева Ж. К., Жумаева Д. Х. (2019) Особенности анализа основных фондов и инвестиций на предприятиях //Бенефициар. –№. 52. – С. 7-10.

Руткаускас Т.К. (2019) Инвестиции и инвестиционная деятельность организаций: учебное пособие / под общ. ред. д-ра экон. наук, проф. Т. К. Руткаускас. — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, - С9.

Уилям Ф. Шарп, Гордо Ж. Алеккадер, Жеффри Б. Бейли (2001) Инвестиции: учебник // Инфра-М, – 1035 с.